



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

“MALLA SAVDOGAR” DOSTONI VARIANTLARIDAGI JANJALKAL PERSONAJNING O‘ZIGA XOSLIGI

Achilova Zuxra Qurbanovna

Qarshi davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya

Maqolada o‘zbek xalq og‘zaki ijodida muhim o‘rin tutuvchi “kal” obrazi genezisi, semantik mohiyati hamda badiiy funksiyasi folklor namunalari asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda “kal” obrazi ertak va dostonlarda tashqi jihatdan kulgili, sodda yoki ojiz ko‘rinishda tasvirlansa-da, aslida aql-zakovat, donolik va haqiqat timsoli sifatida namoyon bo‘lishi yoritiladi. Shuningdek, uning mehnatkash xalq vakili, zulm va ijtimoiy adolatsizlikka qarshi kurashuvchi qahramon sifatidagi o‘rni ochib beriladi. Maqolada turkiy xalqlar folkloridagi “kal” obrazining umumiy va o‘ziga xos jihatlari qiyosiy tahlil qilinib, ushbu timsolning mifologik qarashlar, initsiatsiya marosimlari hamda niqob kultlari bilan bog‘liqligi ilmiy manbalar asosida asoslanadi. Ayniqsa, “Malla savdogar”, “Qunduz bilan Yulduz”, “Ravshanxon”, “Yozi bilan Zebo” kabi dostonlar hamda xalq ertaklari misolida Janjalkal va boshqa “kal” personajlarining komik, magik va ramziy qatlamlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida “kal” obrazi xalqning estetik tafakkuri, ijtimoiy qarashlari va badiiy idealini ifodalovchi ko‘p qatlamli folklor timsoli ekanligi aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: Kal timsoli, kal tushunchasini ramziy jihati, doston, ertak, Janjalkal, komik fe‘l-atvor, magik qarashlar, initsiatsiya marosimi, xalq qahramoni, turkiy xalqlar folklori kalni epik qahramon sifatidagi tasvirlari.

СВОЕОБРАЗИЕ КОНФЛИКТНОГО ПЕРСОНАЖА В ВАРИАНТАХ ДАСТАНА «МАЛЛА САВДОГАР»

Ачилова Зухра Курбановна

Каршинский государственный университет, независимый исследователь

Аннотация

В статье на основе фольклорных материалов анализируются генезис, семантическая сущность и художественные функции образа “Кал”, занимающего важное место в узбекском устном народном творчестве. В исследовании показано, что образ “Кал”, несмотря на внешнее изображение в сказках и дастанах как комичного, простодушного или слабого персонажа, в действительности выступает символом ума, мудрости и истины. Также раскрывается его роль как представителя трудового народа и героя, борющегося против угнетения и социальной несправедливости. В статье в сравнительном аспекте рассматриваются общие и специфические черты образа “Кал” в фольклоре тюркских народов, а также на основе научных источников обосновывается связь данного образа с мифологическими представлениями, обрядами инициации и культом масок. В частности, на примере дастанов “Малла савдогар”, “Кундуз билан Юлдуз”, “Равшанхон”, “Йози билан Зебо”, а также народных сказок анализируются комические, магические и символические пласты образов Джанджалкал и других персонажей типа “Кал”. В результате исследования установлено, что образ “Кал” является многослойным фольклорным символом, отражающим эстетическое мышление народа, его социальные взгляды и художественный идеал.

Ключевые слова: образ Кала, символические аспекты понятия “Кал”, дастан, сказка, Джанджалкал, комические черты характера, магические представления, обряд инициации, народный герой, фольклор тюркских народов, изображения Кала как эпического героя.

THE DISTINCTIVE CHARACTERISTICS OF THE CONFLICTUAL CHARACTER IN THE VARIANTS OF THE EPIC “MALLA SAVDOGAR”

Achilova Zuxra Qurbanovna

Karshi State University, Independent Researcher

Abstract

The article analyzes the genesis, semantic essence, and artistic function of the “Kal” character, which occupies an important place in Uzbek oral folk literature, based on folklore samples. The study demonstrates that although the “Kal” figure is often portrayed in fairy tales and epics as outwardly comical, naïve, or weak, in essence he appears as a symbol of intelligence, wisdom, and truth. Furthermore, his role

as a representative of the hardworking common people and as a hero struggling against oppression and social injustice is revealed. The article comparatively examines the common and distinctive features of the “Kal” character in Turkic folklore and substantiates, on the basis of scholarly sources, the connection of this image with mythological beliefs, initiation rituals, and mask cults. In particular, the comic, magical, and symbolic layers of Janjalkal and other “Kal” characters are analyzed through the examples of such epics as *Malla Savdogar*, *Qunduz bilan Yulduz*, *Ravshanxon*, and *Yozi bilan Zebo*, as well as folk tales. The study concludes that the “Kal” character represents a multilayered folkloric image expressing the people’s aesthetic thinking, social views, and artistic ideals.

Keywords: Kal image, symbolic aspects of the concept of Kal, epic, fairy tale, Janjalkal, comic character traits, magical beliefs, initiation ritual, folk hero, Turkic folklore, representations of Kal as an epic hero.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodida badiiy obrazlar xalqning tarixiy xotirasi, estetik tafakkuri va ijtimoiy qarashlarini ifodalovchi muhim poetik hodisa hisoblanadi. Shunday obrazlardan biri “kal” **obrazi** bo‘lib, u doston, ertak va boshqa folklor janrlarida o‘ziga xos badiiy hamda ramziy vazifa bajaradi. Tashqi ko‘rinishda sodda, kulgili yoki ojiz sifatida tasvirlangan ushbu obraz aslida aql-zakovat, donolik, topqirlik va haqiqat timsoli sifatida talqin qilinadi.

Folklor namunalarida kal obrazi ko‘pincha kambag‘al, yetim yoki jamiyatda kamsitilgan qatlam vakili sifatida namoyon bo‘ladi. Biroq uning aql-farosati va tadbirkorligi orqali zulm va adolatsizlik fosh etilib, xalqning ijtimoiy ideal va orzu-intilishlari ifodalanadi. Shu jihatdan kal obrazi xalq dunyoqarashi va estetik tafakkurining muhim badiiy timsoli hisoblanadi.

Turkiy xalqlar folklorida ushbu obrazning keng tarqalganligi uning qadimiy ildizlarga ega ekanini ko‘rsatadi. Tadqiqotlarda “kal” **obrazi** mifologik qarashlar, initsiatsiya marosimlari, niqob kultlari va arxaik e‘tiqodlar bilan bog‘liq holda izohlanadi. Shu bois u nafaqat komik qahramon, balki qadimgi mifopoetik tafakkur mahsuli sifatida ham ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. “Malla savdogar” dostoni va uning variantlarini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlarda asarning syujeti, poetikasi hamda obrazlar tizimi folklorshunos olimlar tomonidan tahlil qilingan. Xususan, o‘zbek xalq dostonlarining badiiy xususiyatlari, personajlar tipologiyasi va folklor an‘analari yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarda epik qahramonlarning xarakter yaratishdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, xalq dostonlarida salbiy va komik personajlarning vazifasi hamda ularning syujet rivojidadagi ahamiyati haqida ayrim ilmiy qarashlar mavjud.

Biroq “Malla savdogar” dostoni variantlaridagi Janjalkal personajining individual xususiyatlari, uning xarakter talqini hamda variantlar kesimidagi o‘ziga xos jihatlari alohida tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha o‘rganilmagan. Mazkur maqolada Janjalkal obrazi folklor poetikasi va obrazlar tizimi nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda “Malla savdogar” dostoni variantlari qiyosiy-tahliliy metod asosida o‘rganildi. Tadqiqot jarayonida Janjalkal personajining badiiy talqini, xarakter xususiyatlari hamda syujetdagi funksiyasi folklorshunoslikning nazariy tamoyillari asosida tahlil qilindi. Shuningdek, obrazning variantlar kesimidagi o‘xshash va farqli jihatlari aniqlashda tipologik hamda tavsifiy metodlardan foydalanildi. Personaj nutqi, xatti-harakati va epik muhit bilan bog‘liq poetik unsurlar matniy tahlil orqali yoritildi.

Tahlil va natijalar. Xalq og‘zaki ijodi asarlaridagi kal obrazi aslida niqob bo‘lib, o‘zini atay kalga yoki yolg‘onchiga chiqargan ob‘ekt aslida aql va haqiqat timsolidir. U mavjud vaziyatga oqilona yechim topishi, aqli va zukkoligi bilan boshqa personajlardan ajralib turadi. “Kal folklorida, xususan o‘zbek xalq doston va ertaklarida mehnatkash xalq vakili sifatida kurashuvchi qahramon obrazi. Feodalizm jamiyatida o‘ta xo‘rlangan, behunar, farosatsiz hisoblangan Kal o‘zining donoligi, aql-farosat sohibligi, xalq qayg‘usida kurashuvchilarga hamdard va hamnafasligi bilan xalq ommasining mehrini qozongan o‘lmas qahramon” [1, 41-b.].

“Kal” so‘zining kelib chiqishi makon va zamon e‘tibori bilan tekshirilganda uzoq davrlarga borib taqaladi. O‘zbek xalq og‘zaki ijodida xalq qahramoni sifatida tan olingan bu obraz barcha turkiy xalqlar orasida ma‘lum va mashhurdir. Turkiy xalqlar og‘zaki ijodining ko‘pgina janrlarida “kal” obrazi yetakchi siymo sifatida namoyon bo‘lishi insoniyat tafakkurining, ayniqsa, turkiy xalqlar idrokining mushtarakligini ko‘rsatadi. Bu obrazni turkiy xalqlarni umumlashtiruvchi o‘ziga xos timsol sifatida o‘rganish ularning ma‘naviy olami, dunyoqarashi, olam va odamga munosabatidagi o‘xshash va farqli jihatlari ochib berish imkonini beradi [2, 327-b.].

“Kal” so‘zi mazmunan sochi to‘kilganlikni bildiradi. Bundan tashqari, “kal” dono kishining

nomi bo‘lib, keyinchalik esa shu nom – “kal” donishmandlarga ko‘chirilgan bo‘lishi ham mumkin. Shundan so‘ng “kal” donolik ramziga aylangan bo‘lishi ehtimoldan holi emas. Hind tilida ham “kal” so‘zi uchraydi, biroq bu so‘z “chaqqonlik” ma‘nosini ifodalaydi [Имомов К. 1:51]. Kal haqidagi ertaklarning mavjudligi juda qadimga borib taqalishi bu obrazning ham qadim zamonlardan beri xalq qahramoni sifatida tan olinganligini anglatadi. Haqiqatan ham, bu qahramon xalq og‘zaki ijodining ko‘pgina janrlarida el nazariyaga tushgan, xalq e‘tiborini, odamlar mehrini qozongan yoki ko‘plab ijtimoiy sifatning tashuvchisi sifatida ko‘zga tashlanadi [2, 328-b.].

“Qunduz bilan Yulduz” dostonida bu obraz bosh qahramonning jangovar do‘sti, ko‘makchi obraz sifatida, bilagi kuchga to‘lgan, g‘ayrat-shijoatli, harakatchan qahramon sifatida tasvirlanadi. “Ravshanxon” dostonida esa Aynaq, Jaynaq, Ersak, Tersak, Janjal kallar xalq qasoskorlari sifatida zamonasining zulmi siyosatiga qarshi kurashuvchi obrazlar tarzida gavdalanadi: “Aynoq kal – polvon edi, o‘zi juda zo‘r edi, urush-surish bo‘lsa, mingga barobar edi. Jaynoq kal – masxaraboz edi, har tusli bo‘laverar edi. Agar birovni aldamoqchi bo‘lsa, har tusli bo‘lganda o‘zining jo‘radoshini ham tanimas edi. Tersak kal – sinchi edi. Yilqining tulporini suyagidan tanir edi. Qilichning o‘tkirini qinidan bilar edi. Ersak kal – juda mergan edi. Qushlarning dodini berar edi. Oqshomlari kamonini qo‘liga olsa, qushni ko‘zidan urar edi. Aka-ukalarning barisi durust kallar edi” (Жуманбулбул ўғли Э. 3:195). Umuman aytganda, ushbu kallar o‘z davri uchun insonparvarlik, vatanparvarlik, mardlik va qahramonlik ifodasi sifatida gavdalaniriladi [2, 328-b.].

K. Imomovning ta‘biri bilan aytganda, kal — zukko, hozirjavob, so‘zamol, sho‘x komik qahramon. Uning ertak sujetida paydo bo‘lishi tinglovchida quvnoq kulgi uyg‘otadi. Y. Tursunov turkmo‘g‘ul xalqlari folkloridagi kal obrazining genezisi masalasini yoritarkan, shunday deydi: “Tazsha (ya‘ni kal) g‘ayritabiiy xususiyatlarga ega bo‘lgan magik kuch sohibi, u tabiat hodisalariga ham g‘ayrioddiy ravishda ta‘sir ko‘rsata oladigan obraz”.

Bundan tashqari, J. Frezerning yozishicha, qadimiy an‘anaga ko‘ra, o‘zga urug‘, o‘zga shahar yoki yurtidan kelib podsho qiziga uylangan odam taxt vorisi hisoblangan. Baxtin kal obrazini antik niqob kultiga bog‘liq deb ta‘riflaydi. Olimning fikricha, “bu yerda eng muhimi inson obrazining to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, ko‘chma mohiyat, tom ma‘noda kinoyadan iborat ekanidir. Albatta, mazkur holat metamorfoza bilan bog‘liq”.

Proppning ta‘kidlashicha, initsiatsiya marosimida bosh va sochlarga ham ta‘sir o‘tkazilgan. Ta‘sir ikki xil bo‘lgan: soch olingan yoki o‘stirilgan, ammo o‘stirilgan sochlar yechish mumkin bo‘lmagan maxsus bosh kiyim ostiga yashirilgan. Kal obrazi initsiatsiya marosimi bilan genetik aloqadordir.

“Yozi bilan Zebo” dostonida Yozi tilla kokil bilan tug‘iladi. Enasi: “Buni xalq bilmasin”, deb bir qo‘zining qornini Yozining boshiga yopib qo‘yib: “Men kal tug‘dim”, deb gap tarqatadi. Mulla Ortiqning qizi Zebo esa yetti parda bilan tug‘iladi. Epik qahramonlarning g‘ayrioddiy tug‘ilishi motivining bunday o‘ziga xos talqini orqali xalqimiz o‘zining botiniy va zohiriy go‘zallik haqidagi tasavvur-tushunchalarini ifoda etgan.

Tabiatan xoksor, kamtar va kamsuqum bo‘lgan qahramon hamisha boshiga jumur kiyib, juldurvoqi kiyimda yurgani uchun el orasida “Kal Yozi” nomini olgan bo‘lsa-da, uning jisman go‘zalligi va ichki dunyosining benazirligini tinglovchi qalban his etib turadi. Zebo o‘zining bug‘doyzoridan mashoq terib yurgan boshqochilarni u yoq-bu yoqqa surib, zirqillatib quvganida qo‘rqib qochgan Yozi bir kesakka qoqilib, chalqanchasiga yiqiladi. Ana shunda uning boshidagi qo‘zi qorni — jumur bir yoqqa surilib ketib, tilla kokillari yalt etib ko‘rinadi. Bunga ko‘zi tushgan Zebo Yozining go‘zalligiga, benihoya ta‘rifsiz chiroyiga dosh berolmay hushidan ketadi va otidan yiqilib tushadi.

Yozining “kal”ligi, ya‘ni o‘zining zohiriy go‘zalligini jumur ostiga yashirishi, dostonida tasvirlangan voqealar dramatismining izchil ravishda kuchayib borishini ta‘minlovchi poetik vosita vazifasini ham o‘tagan. Yozining yetimligi, kalligi va qallochligini ro‘kach qilgan Mulla Ortiq qizini unga berishdan qat‘iyan bosh tortadi. Yozidan qutulish uchun unga bajarilishi mushkul bo‘lgan topshiriqlar beradi. Ammo o‘zining g‘ayritabiiy homiylari ko‘magida Yozi bu vazifalarni muvaffaqiyatli uddalaydi.

Xalq orasida “Aqlli boshni soch tark etar” degan gap bor. Demak, bu o‘rinda sochsiz bosh aqllilik, donolik belgisi sifatida talqin qilinmoqda [1, 41-b.].

Bu ham sochga nisbatan turlicha qarashlar hukmronligini anglatuvchi dalillardan biridir. Folklor janrlarida kal (boshida tuki yo‘q erkak kishi) obrazi jismonan zaif, lekin aqlan o‘tkir, dono, bilimdon va uddaburon qiyofada tasvirlanadi. O‘zbek xalq sehrli ertaklarida kal obrazi ikki xil talqin qilinadi. Birinchisi, tilla kokillarini yashirish maqsadida boshiga teri kiygan soxta kal bo‘lsa, ikkinchisi omad qushi boshiga qo‘nib, dangasaligi fonida aqlliligi yashiringan haqiqiy kal obrazidir. Birinchi tur kal

o'zining kuchi va kimligini niqoblash maqsadida atayin kal tusiga kirsa, ikkinchisining aqlliligiga sabab aynan boshida tuki yo'qligidir [1, 42-b.].

Dostonlardagi kalllar ertaklardagi kallardan farqli o'laroq jangovarlik ruhini tashiydi. Ertaklardagi bu obraz esa kambag'al kosib, podachi yoki dehqon farzandi, ba'zan yolg'iz kampirning yolg'iz o'g'li sifatida harakat qiladi va umumxalq manfaatlarini ifodalaydi [2, 329-b.].

Masalan, "Mamat kal" ertagida bu obraz kambag'al dehqonning yolg'iz o'g'li sifatida tasvirlanadi. U bir boynikida cho'pon bo'lib xizmat qiladi. Ammo besh yilda ham o'z xizmat haqini ololmaydi. Ertak oxirida esa kal nochor kambag'allarni ishlatib, ish haqini bermaydigan boyni ham, bevafo o'gay onasini ham jazolaydi. Ertakda kalning tadbirkorlik va hiylakorlik sifatleri yoritilsa-da, jamiyatdagi ana shunday zulmkor boylar hamda mehirsiz va bevafo o'gay onalarga qarshi kurashish g'oyasi ilgari suriladi. Xalq shunday illatlarga qarshi kurashishni istaydi va kal obraziga o'ziga xos vazifalarni yuklaydi [2, 329-b.].

Xalq og'zaki ijodida badiiy obraz xalq ongining in'ikosidir. Ijodkor xalq vakili jamiyatdagi muammolarni idrok etadi. Sehrli ertaklarda xalq ijodkori tasavvur olamiga erkinlik berib, hayotdagi yomon insonlarni devlar, ajdarholar, yalmog'izlar qiyofasida gavdalandirgan bo'lsa, orzusidagi komil shaxslar timsolini esa pahlavonlar, Kenja botirlar, donishmand chol, Xizr, parilar va dono qizlar misolida ko'radi. Muammolariga yechimni "kal" timsoliga o'xshash obrazlarga yuklaydi. Ertaklardagi obrazlar tizimi orqali xalq muammolar yuzasidan o'zining fikr va mushohadasini shakllantiradi. Bunga folklorshunos olim J. Eshonqulov eng asosli fikr bilan munosabat bildiradi: "Xalq og'zaki ijodi obrazlarini o'rganish xalqni, insonni o'rganishning aynan o'zidir. Zero, ilk paydo bo'lgan mifdan tortib, eng so'nggi paytlarda yaratilgan asarlarga faqat inson o'rganilgan, inson tadqiq etilgan" [2, 335-b.].

"Malla savdogar" dostonining barcha variantlarida syujetning ayrim epizodlarida o'z vazifasini bajaruvchi va hech bir kimsaga o'xshamagan qiziqarli tabiatga ega Janjalkal personaji uchraydi. Har bir variantda baxshilar uning suvrat-shamoyili va siyratini shunday tasvirlaydilar, u o'quvchi kayfiyatiga yumor bag'ishlaydi. Bu personaj dostoniga shunchaki kiritilmagan. U ham dostonidagi asosiy qahramonga Qirq chilton, Xizr, usta Diyor (shomon chol), Pozil cho'pon (cho'ponlar), kampir (Barnogul momo) kabilar qatorida ko'makchi va samimiy do'st sifatida gavdalanadi. Janjalkal epik personaj bo'lib, uning "afandisifat", "g'alati" fe'l-atvori doston tinglovchisi yoki o'quvchisiga erish tuyulmaydi. Aksincha, uni o'ziga jalb etadi. Avazxon orqali u bilan qalban suhbatlasha boshlaysiz. Tadqiq etilgan to'rt variantda bu personaj talqinlarini ko'rib chiqamiz.

Baxshi Jo'ra Eshmirza o'g'li varianti: Doston syujeti yana bir timsol — Janjalkal bilan bog'liq voqealar lavhasi orqali to'ldirilgan. Janjalkal pada boqib yurib, tepalik ustidan lochiqqa qaraydi. Lochiq ichida qalandar kulohini ko'rib, noto'g'ri xayolga borib, uyidagi begonani kaltaklagani keladi. Janjalkalning onasi vaziyatni tushuntirgach, kapa eshigini ochib, Avazxon bilan ko'rishadilar.

Avazxon tashqarida dala-dasht tomonidan eshitalayotgan shovqin sababini so'raydi. Janjalkal Bog'dod podshosi Shopsapidning Oyzaynab ismli parizod qizi borligini, u Chambil mamlakatiga xabarchi yuborganini, Avazxonni topa olmaganini, to'y boshlanganini, balki to'y tarqaguncha Avaz kelib qolar degan umid va dargumon bilan taqdirida nima bo'lsa ko'rishini aytib tushuntiradi. To'y bahonasida ko'pkari uyushtiriladi. Ko'pkarida Janjalkal Avazning oti bilan qatnashadi va uloqni qo'lga kiritadi. Janjalkal uloq hamda to'n bilan uyiga qaytadi.

Avazxon keyingi xabar kurash ekanligini Janjalkaldan biladi. Kurashning sharti: yiqilgan polvonga bosh-oyoq sarpo, yutgan polvonga esa yetmish besh tayoq urish edi. Avaz bu kurashga Janjalkalga ergashib jo'naydi. Odam yig'ilgan yerga yetib boradilar. Bu yerda Bog'dod mamlakatining bir polvoni bo'lib, u ertalab uyqudan turib uch molning go'shtini va to'qqizta nonni yer, choy o'rniga esa bir xum suv ichar ekan. Shu polvon o'rtaga chiqqani uchun biror kishi u bilan kurash maydonida yuzlashishga botinolmay turgan paytda Avazxon talabgor bo'lib chiqadi.

Avazxon avval Xudoga, keyin pirlariga sig'inib, polvonning yoqasidan olib, uni tepasida uch aylantirib yerga uradi va ustiga chiqib turib oladi. Ko'shkda turgan Oyzaynab bu holni kuzatib turadi. Avazxon yiqilganga sarpo, yutganga esa yetmish besh tayoq urish uchun to'p bo'lib kelgan xalqqa qarata:

— Ajabo, hayron qolarlik. Bizning shaharlarimizda yiqilgan kishiga qancha ta'zim beradi. Bizday atangan polvonga tilla abzalli ot beradi. Bir mamlakat bekligini ham beradi. Bu qanday gap, nechuk qoida? — deydi.

Oyzaynabning qoshiga ikki kishini yuborib, vaziyatni anglatadi. Oyzaynab:

— U ham o'z ixtiyoriga ishlasin, sizlar ham o'z ixtiyoringizga ishlanglar, — deydi.

Bu gapdan so'ng to'planganlar norozi bo'lib tarqaladilar. Janjalkal bilan Avazxon ham uyga qaytadilar. Kampir pishirib qo'ygan uloq go'shtidan tanovul qilishib, Janjalkal podaga qaragani ketadi

[3, 351–353-b.].

Doston parchasida Baxshi Jo'ra Eshmirza o'g'li variantiga xos syujet kengaytmalari va epik tafsilotlar tizimi yaqqol namoyon bo'ladi. Matnning mazmuniy tuzilishi an'anaviy qahramonlik dostoni elementlari bilan bir qatorda xalqona kulgi, maishiy realizm va dramatik vaziyatlar uyg'unligida shakllangan.

Avvalo, Janjalkal obrazi epik voqealarga komik-psixologik rang beruvchi timsol sifatida talqin qilinadi. Uning lochiq ichidagi holatni noto'g'ri talqin qilishi va keskin reaksiya ko'rsatishi xalq og'zaki ijodiga xos sodda, ammo jonli xarakter yaratish usulini aks ettiradi. Bu epizod syujetga dinamizm kiritish bilan birga, keyingi voqealarga kirish uchun muhim dramatik ko'prik vazifasini bajaradi.

Ko'pkari epizodi xalq urf-odatlarini va marosim madaniyatini aks ettiruvchi muhim etnografik detal sifatida kiritilgan. Bu yerda Janjalkalning Avaz otida ishtirok etishi va uloqni qo'lga kiritishi uning epizodik bo'lsa-da, faol harakat subyekti ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, bu lavha syujetning dramatik keskinligini yumshatib, xalqona ruhni kuchaytiradi.

Parcha syujet rivojida ko'p qatlamlilikni namoyon etadi: unda komik epizodlar, qahramonlik sahnalari, etnografik lavhalar va ijtimoiy tanqid elementlari o'zaro uyg'unlashgan. Matnning badiiy qiymati obrazlar tizimining rang-barangligi, voqealar izchilligi va xalq og'zaki ijodiga xos ifoda vositalarining samarali qo'llanishi bilan belgilanadi.

Baxshi Chorshanbi Rahmatullayev varianti:

— Har o'tganda mehmon bo'lib tushib o'tar edi, gohi olishib-ushlashib o'tar edi, ba'zi paytlar quruq ketar edi. U bir o'tganida Xudo berib bir o'g'illi bo'ldim. Bu yil o'n uch yoshga to'ldi, o'tgan yili sunnat to'yini o'tkazdim. Otasi bo'lmasa ham, o'zim g'ayrat qilib bir usta topib kelib, qo'lini halollatdim. Doshqozonga ikki botmon guruch solib osh damladim, hech kim kelmadi, ena-bola ikkimiz ovora qilmay yedik.

O'g'limning ismini otasi Devbosar qo'ygan edi. Otasiga qaddi-qomati o'xshasa ham, qilig'i, rang-ro'yi o'xshamadi. Kallasi kal, sochi yo'q, bir o'jar, shutanoq, ko'cha bezori bo'lib qoldi. Teginanga teginadi, yo'ldan o'tganga tosh otadi, o'zi tengi bolalarni urib, zor-zor yig'latib bo'zlatadi. Uning ismini hamma Janjalkal deb ataydi. O'z oti qolib, ismi Janjalkal bo'lib ketdi.

Bugun bozorga yuborgan edim. Har bozor sakkiz kalava ip yigirib beraman, go'sht olib kelgin deb yuborsam, qimor o'ynab, uyga quruq keladi. Bugun o'n olti kalava ip berib yubordim. Yarmini yuttirsa ham, yarmiga go'sht olib kelar deb o'yladim. Keladigan vaqti bo'ldi, kelayotgandir, — deb onasi gapidan cho'zilib qaradi.

Qarasa, Janjalkal qip-yalang'och holda kelayotir. Janjalkal bu kuni hamma narsasini yuttirib, hatto ko'yлак-ishtonini ham yuttirgan edi. Enasi buni ko'rib, Avazga bildirmayin deb kapadan emaklab chiqib borsa, Janjalkal o'g'lini koyib, shu so'zlarni aytib turgan ekan:

*Do'st yig'latib, dushmanini kuldirib,
Yomonliging eli-xalqqa bildirib,
Meni vayron qilding rangim so'ldirib,
Nega kelding kiyim-boshing oldirib?
Qiynading-ku meni tiri(k) o'ldirib.*

.....
*Bir yolg'izsan, qarg'ay desam, yurak yo'q,
Senda bo'lsa biron-yarim tilak yo'q,
Nasihatlar eshitishga quloq yo'q,
Nokas otang tashlab ketdi, darak yo'q,
Men sho'ringa sendan boshqa chiroq yo'q.* [4.84-85-b.]

Ushbu parcha Baxshi Chorshanbi Rahmatullayev varianti doirasida xalq og'zaki ijodining ijtimoiy-maishiy qatlamini yorituvchi muhim epizodlardan biridir. Matnda beva ayolning turmush og'irligi, yolg'iz farzand tarbiyasidagi murakkabliklar hamda ijtimoiy muhitning salbiy ta'siri badiiy realizm asosida ifodalangan.

Matnda folklor poetikasiga xos bo'lgan nasriy va she'riy qatlam uyg'unligi kuzatiladi. Ayniqsa, onaning o'g'liga qarata aytgan she'riy monologi didaktik xarakterga ega bo'lib, unda axloqiy tanqid, iztirob va nasihat unsurlari mujassam. Ushbu she'riy parcha xalq og'zaki ijodida keng tarqalgan pand-nasihat motivining tipik namunasi hisoblanadi.

Shuningdek, matnda ishlatilgan leksik birliklar va iboralar (masalan, “doshqozon”, “botmon”, “kalava ip”) milliy turmush tarzini, iqtisodiy sharoitni va davr koloritini aniqlik bilan aks ettiradi. Bu esa parchani etnografik jihatdan ham qimmatli manbaga aylantiradi.

Janjalkalning ko'pkariga borishi va g'olib bo'lish tasviri: Shahri Bog'dodning arki tomonidan chang to'zon ko'tarilib, shovqin-suron ovozi eshitila berdi. Avaz "Momojon, bu nima, qanday sir yoki to'y, ko'pkarimi", - dedi. Janjalkal qoshini kerib, joyidan irg'ib turib, Avazga: "Eh, aka, kecha aytaman deb esimdan chiqibdi, poshshoning qiziga xushtor bo'lib o'n to'rt mamlakatdan odam kelgan. Poshshoning qizi uchta shart qo'ygan" deya shartlarni birma-bir aytadi.

Bugun otingni ko'pkari boshlangan, agar, aka, menga otingni bersang, bir borib ko'pkarining tartibini bilib kelay", - dedi. Avaz aytdi: "Ey uka, bul ot seni minadigan otlardan emas, agar borging kelsa, piyoda boraver. Janjalkal: "Menga ishonmaysizmi, chopmayman, yo'rtmayman, turtmayman, qamchiyam olmay qulog'iga chertmayman, o'z yurishida minib borib kelaman", - deb qo'ymay G'irotni oldi, tez minib yo'lga kirib, Avazdan yashirib, otasining olti yarim quloch xinacho'qqasi qolib ketgan edi, buni olib otdi, chih-chuh deb turta berdi. Shunda G'irotni g'azablanib bu kalni tavbasiga tayantirayin deb silkinib shamolday shovullab o'r bormi, qir bormi jilov bermay yulduzday uchib Janjalkalni olib qochib ketayotgan ekan, Janjalkalning rangi o'chib, qo'rqib egarning boshidan quchoqlab ushlab, ko'zini yoshlab, o'zini egarga tashlab, ikkinchi turtsam o'layin, tavba qildim deb qasam ichib shu so'zlarni aytib ketayotir:

*Qayrilib sinmasi lochin qanoti,
Xonavayron bo'lmasin otam raboti,
Enam sho'rding ko'paymasin kulpati,
Armonda o'lmasin Hasan parzanti,
Bir martaga kechir, akamni oti.* [4.86-87-b.]

...ot Janjalkaldi olib chopilib yotgan ko'pkarining ustidan endirib olib bordi. O'n to'rt mamlakatdan saralanib, terilib kelgan olti mingga yaqin tulpor otding tumanday badanidan bug' ko'tarilib, uch Kundan beri uloqqa so'yib tashlangan olti yashar buqa joydan qimirlolmay, hech kim uni ko'tarib olmay yotgan edi, jonivor G'irotni olti ming ot to'dasini oralab, nachovini tishlab yaralab, Janjalkal buni ko'rib, vaqti xush bo'lib, kayfi jo'sh bo'lib, jilovidan ushlab, G'irotni tepib-mushtlab, buqa tomonga qarab bir-ikki og'iz so'z aytib borayotgan ekan:

*Kiyik o'ynar tog'ning baland-pastidan,
Jon qutulmas zo'r botirning qasdidan,
Hamma quvonadi gapding rostidan,
Rahmat senga, Avaz akamning oti,
Olib kelding ko'pkarini ustidan.*

*Ketag'ozdi boshdin iqbolim toyib,
Ko'p qiynading, nima edi menda ayb?
Omon-eson qoldim bo'lmasdan g'oyib,
Xazon bo'lgan gulday so'lib-sarg'ayib,
Hunaringni endi ko'rsat, besoyib.* [4.88-b.]

.....
*Har ish kelar Ko'lbarding parzantidan,
Qush qutilmas minib kelgan otidan,
Har poygada o'zgan hayvon zotidan,
Ko'p bedovlar iyarilmas ortidan,
Bu tulpording qo'rqib siyosatidan,
Sherday tebranib endi Janjalkal
Tortayotir zo'r ho'kizding pitidan.*

*Kor qilmaydi sira xavfi-xatardi,
Pisand qilmas kelgan balo-battardan,
Shunda qarang nazarkardi tulpordi,
O'rdakday bag'rini yerga tashladi,
Ko'ring, Janjalkal buqani yerdan ko'tardi.* [4.89-b.]

*Yulduzday uchib G'ir uzoqlab ketdi,
Necha baland devordan sakrab o'tdi,
Izidan quvganlar yiqilib yotdi,
Yaqinlashib Janjalkal kapaga yetdi,*

O'jar kal ekan deb bakovul aytdi,

Kelayotgan bari iziga qaydi.

[4.90-b.]

Ana shunda Janjalkal kapaga borib, baqirib: “O‘ ena, och ko‘zingni, go‘sht deb qulog‘imni teshar eding, mana, olti yoshli semiz buqa olib keldim, endi to‘yguningcha jiya ber”, - dedi. [4.91-b.]

Parcha o‘zbek xalq epik an‘anasiga mansub bo‘lib, unda Janjalkal obrazi orqali jasorat, tasodif va qahramonlik motivlari badiiy ifoda etilgan. Matn syujeti Avaz va uning oti G‘irot bilan bog‘liq voqealar asosida rivojlanadi hamda ko‘pkari (uloq) musobaqasi markaziy epizod sifatida xizmat qiladi.

Ilmiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, epizodda an‘anaviy epik kompozitsiya unsurlari — kirish (voqeaga undovchi sabab), rivoj (harakat va to‘qnashuv), kulminatsiya (uloqni qo‘lga kiritish) va yakun (g‘alaba va qaytish) izchil saqlangan. Janjalkalning dastlabki maqsadi oddiy kuzatuv bo‘lsa-da, voqealar rivojida u majburiy ravishda faol ishtirokchiga aylanadi. Bu holat epik asarlarga xos “tasodifiy qahramonlik” motivini yuzaga chiqaradi.

G‘irot obrazi alohida semantik yuklama kasb etib, u nafaqat transport vositasi, balki mustaqil kuch va qahramonlik timsoli sifatida tasvirlangan. Otning “shamolday uchishi”, “yulduzday tezligi” kabi tasvirlar giperbolizatsiya vositasida berilib, epik uslubning muhim belgilarini namoyon etadi. Shu bilan birga, Janjalkalning qo‘rquv, tavba va keyingi jasoratga o‘tishi psixologik dinamika sifatida talqin qilinadi.

Olti ming ot ishtirokidagi tasvir jamoaviy raqobat va qahramonning ajralib chiqishini dramatik tarzda kuchaytiradi. Kulminatsion nuqtada Janjalkalning buqani ko‘tarib chiqishi uning qahramon sifatida legitimatsiyasini ta‘minlaydi.

Parchada epik poetikaning asosiy xususiyatlari – mubolag‘a, qahramonlik ideali, tasodifiy muvaffaqiyat va hayvon (ot) timsolining markaziy rolini o‘zida mujassam etgan. Janjalkal obrazi orqali oddiy shaxsning favqulodda vaziyatda qahramonga aylanish jarayoni badiiy va g‘oyaviy jihatdan asoslab berilgan.

Janjalkalning kurash maydoniga tushishi: Avaz uyqudan turguncha ena-bola ikkovi olti yashar ho‘kizning go‘shtini yeb, terisini kabob qilib yutishdi. Avaz uyqusidan turib: “Qani, Janjalkal polvon, nima xabar bilib kelding?” – dedi. “Ey aka, hali sen bexabar qolding, hech kim qimillata olmagan olti yoshli ho‘kizni halol ayirib keldim. Sizga qarab o‘ltiramizma, enam bilan maza qilib yeb oldik. Ishonmasangiz, hu, ana, yerda dumi yotibdi”. Avaz aytdi: “Shuncha uyqudan turmasam, meni ham yediqansilar”, – dedi.

Ana endi Janjalkal yana Avazga yopishdi. “Aka, yur, bugun olishi bo‘ladi. Maza qilib tomosha qilib kelamiz”, – dedi. Avaz: “Yo‘q, men bormayman, borgan bilan, olishmasam nima qilaman?” – dedi. Unda Janjalkal aytdi: “Aka, bul olish juda qiziq, boshqacha bo‘ladi. Yiqilgan kishiga to‘n in‘om beradi, bosganga yetmish besh durra uradi. Poshshoning qizi shunday shart qo‘ygan, kim shunga chidab, zo‘r polvonlarni yiqitib, yetmish beshni yeb bardosh bersa, shunga tegadi. Yur, aka, juda yaxshi kurash bo‘ladi”.

Avaz: “Borsam boraqolay, lekin borgandan keyin o‘zing ham olishga chiqmaysan, olishib yo yiqitib sharmanda bo‘lma”, – dedi. Shunda Janjalkal: “Ey aka, menga kim qo‘yibdi olishishni? Shul paytgacha to‘yga borganim yo‘q”, – dedi.

Ikkovi piyoda yurib olish joyiga yetdi, odam juda gavjum. Janjalkal borgandan Avazning gapiga quloq solmay, sakrab davraga o‘tib aylana berdi. Bir polvon talab qilib chiqdi, uni yiqitdi, iziga yana birovini talab qilib chiqdi, uni yiqitdi, iziga yana birovini yiqitib, ikki yetmish beshtadan yeb, Avazning yoniga kelib, oh deb yotib qoldi. Avaz ochig‘i kelib: “Ey enasi xotin, men senga nima deb edim?” – deb beliga tepib yubordi. [4.91-b.]

Shundan so‘ng Avazxon kurash maydonida Xuton mamlakatining eng zo‘r sanalgan polvoni Qoralung bilan kurashib g‘olib bo‘ladi.

Ushbu epizodda Janjalkal obrazining hazil-mutoyibaga moyilligi va soddadil xarakteri ochib beriladi. U Avaz uxlab yotgan paytda onasi bilan birga olti yoshli ho‘kizni so‘yib, uni iste‘mol qilgani orqali o‘zining beparvo va maqtanchoq xulqini namoyon etadi. Avazning bunga munosabati orqali esa uning vazminligi va vaziyatni tanqidiy baholash qobiliyati ko‘zga tashlanadi.

Keyingi voqealar kurash maydoni tasviri bilan davom etadi. Janjalkal Avazni tomoshaga chorlab, kurash shartlarini bayon qiladi: g‘olibga mukofot berilishi, yutqazganga esa jazo qo‘llanishi hamda eng bardoshli va kuchli polvonga podsho qizining nasib etilishi motivi keltiriladi. Bu jihatlar xalq og‘zaki ijodida keng tarqalgan sinov va mukofot konsepsiyasini aks ettiradi.

Voqea rivojida Janjalkalning o‘z so‘ziga zid ravishda kurashga tushishi va bir necha polvonni mag‘lub etishi kulgili, ayni paytda mubolag‘aviy tarzda tasvirlanadi. Biroq u jismoniy jazoga bardosh

bera olmay yiqiladi. Bu holat orqali obrazning ichki zaifligi va haddan tashqari ishonch oqibatlarini ko'rsatiladi. Avazning tanbeh berishi esa asarda axloqiy xulosa vazifasini bajaradi.

Epizod yakunida Avazning Xuton mamlakatining kuchli polvoni Qoralung ustidan g'alaba qozonishi uning haqiqiy qahramon sifatidagi maqomini mustahkamlaydi. Shu tariqa matnda qarama-qarshi xarakterlar (Janjalkal – kulgili, Avaz – jiddiy va kuchli) orqali dramatik va didaktik mazmun yuzaga keltirilgan.

Janjalkalning kurashdan qaytish chog'idagi tun bilan bog'liq qiziq holati: Janjalkal, Avaz ikkovi uyga qarab jo'nadi. Avaz to'ydandan olgan to'nlarini egniga tashlab kelayotgan edi. Janjalkal kelakela bir joyga kelib yotib qoldi. Avaz iziga qarab unga: "Yur, nima bo'ldi senga? Biron joying og'ridimi?" – dedi. Janjal aytdi: "Og'risin. Menga to'ningni birovini ber, bo'lmasa, joyimdan turmayman, uyga bormayman". Avaz aytdi: "Yur, shovvoz, men to'nni nima qilaman, uyga borganingdan so'ng ikkoviyam seniki, senga beraman". "Uyga borganida boshingga qo'yib yot, bersang hozir birovini ber, uyga borganidan so'ng yuzayam keramas. Men enamning oldiga kiyib borayin", – dedi. Avazxon Janjalkalning qilig'iga kulib: "Ol, to'n kerak bo'lsa", – deb ikki to'nniyam unga otib tashladi. Joyidan irg'ib turib, to'nni olib olib, ipi uzgan ayg'irday jengsalib chopib uyiga qarab qochib jo'nadi. [4.94–95-b.]

Avazdan oldin uyga yetib kelib, go'yoki to'nni o'zi yutib olganini, Avazning quruq qo'l bilan qolganini aytadi.

Shu paytda Avaz yetib kelib: "Mana, yanga, o'g'lingizga to'n olib berdim", – deydi. Janjal to'nni quchoqlab kapadan qochadi. Momo izidan quvib, qarg'ab: "Qayt izingga, qurig'ir, shum taka, kel bu yoqqa, to'n kiymay o'l, bu yoqqa kel, bitmagir kal. Tag'in to'nni o'zim oldim deydi. Novcha bo'lganing bilan kuching yo'q, kallangda soching yo'q, yo'qol ko'zimdanda nari. Yana qaytib kelsang, tirilay yerga ko'maman", – dedi. Enasiga gap qaytarib, Janjalkal bozorga jo'naydi. [4.95-b.]

Shunda Avaz: "Ey yanga, hali o'g'lingiz yosh, keyinchalik es-aqli kirib, tup-tuzuk, dono kishi bo'lib yetishadi, xafa bo'lmang", – dedi. [4.95-b.]

Doston parchasida o'zbek xalq og'zaki ijodiga mansub dostonlarda qahramon xarakterini ochishda kulgili vaziyat va dialoglarning muhim badiiy vosita sifatida qo'llanishi yaqqol namoyon etiladi. Unda Janjalkal obrazi orqali bolalarcha qaysarlik, ayyorlik va sodda manfaatparastlik unsurlari tasvirlangan bo'lib, voqea rivoji kulminatsion nuqtaga aynan tun manzarasi va yo'l jarayonida yuzaga kelgan dramatik epizod orqali olib chiqiladi.

Parchada Janjalkalning to'nni qo'lga kiritish maqsadida o'zini ojiz qilib ko'rsatishi, Avazning esa sodda va bag'rikeng munosabati orqali ikki xil xarakter kontrasti yuzaga chiqadi. Dialogik nutq vositasida qahramonlarning ichki dunyosi ochilib, ayniqsa, Janjalkalning makkorona xatti-harakati kulgili, ammo ma'naviy-axloqiy jihatdan tanqidiy ruhda ifodalanadi. Syujetning keyingi rivojida esa qahramonning yolg'onchilikka moyilligi ("to'nni o'zi yutib olganini" da'vo qilishi) yanada keskinlashadi va bu holat onaning keskin tanbehi orqali fosh etiladi.

Onaning nutqi xalqona iboralar, haqorat va kinoyaviy laqablar bilan boyitilgan bo'lib, u tarbiyaviy funksiyani bajaradi hamda ijtimoiy-axloqiy me'yorlarning buzilishiga nisbatan jamoaviy munosabatni ifodalaydi. Avazning yakuniy replikasi esa asarda muvozanatni tiklab, didaktik xulosa vazifasini bajaradi: unda yosh avlodning hali shakllanish jarayonida ekani, kelajakda komil inson bo'lib yetishishiga ishonch ifodalanadi.

Shunday qilib, mazkur epizod doston poetikasida komik vaziyat, xarakterlar qarama-qarshiligi va xalqona nutq orqali axloqiy g'oyani yetkazishning samarali namunasi sifatida baholanadi.

Janjalkalning Avazning qiyofasini o'zgartirish vaqtidagi ko'magi: Syujetda Avazxonni qiz bola qiyofasiga kiritish uchun kiyim-kechakdan tashqari soch kerak edi. Shunda momo Janjalkal uyga kelganda: "– Bolam, bo'talog'im, senga bir xizmat chiqdi. Tez hu ana u qirning orqasida bir suluv yilqi yuribdi. Borib qora yilqining ikkitasining dumini kesib kel", – dedi.

Janjalkal gapga tushunib chopib ketdi, suruv yilqiga yetdi. "Kesishga pichoq ham olmabman, bunga pichoq nima kerak?" – deb bo'riday silkib tortib, to'qqizta yilqining dumini tag-tomiri bilan sug'urib, to'qqiztasini quchoqlab uyga keldi. Buni enasi ko'rib: "Eh, nodon, sho'r kal bolam, munchani nima qilasan? Qari otingning dumidan ikkita dedim-ku, ana oq dumlarni nega yulib olding, uvoli bor. Qanday tirik molning dumini tubidan sug'urding?" – dedi. Janjalkal: "Oqmi-qorami, qo'lim yetganini ola berdim", – dedi. U to'rtta oq bo'z otning ham dumini olib kelgan edi. [4.99-b.]

Ana endi yangasi Avazxonga soch qilib, qo'lga xino qo'yib, zarrin liboslardan kiydirdi. Avaz qizday chiroyli, qizbashara husndor yigit edi, qiz libosini kiygandan so'ng husni-jamoli haligi paridan ham go'zallashib ketdi. [4.99–100-b.]

Mazkur epizodda Avazxonni qiz bola qiyofasiga kiritish jarayoni tasvirlanadi. Syujet talabiga

ko'ra, uning tashqi ko'rinishini o'zgartirish uchun nafaqat kiyim-kechak, balki soch ham zarur bo'ladi. Shu sababli momo Janjalkalga qora yilqi dumlaridan soch tayyorlab kelish vazifasini topshiradi.

Janjalkal topshiriqni noto'g'ri anglab, yilqi suruviga boradi va ehtiyotsizlik bilan to'qqizta yilqining dumini tubidan sug'urib olib keladi. Onasi bu holatdan norozi bo'lib, unga topshiriq mazmunini oddiy va aniq qilib berganini, ya'ni faqat ikki dona dum kerakligini ta'kidlaydi hamda hayvonlarga yetkazilgan zarar yuzasidan uni tanbeh qiladi. Janjalkal esa topshiriqni to'liq anglamaganini va qo'liga tushganini olib kelganini bildiradi.

Keyingi voqealarda Avazxonning tashqi ko'rinishi yangasi tomonidan qayta ishlanadi: uning sochi qora yilqi dumlaridan tayyorlanib, qo'llariga xino qo'yiladi hamda zarrin liboslar kiydiriladi. Natijada Avazxonning qiz qiyofasi nihoyatda jozibador va estetik jihatdan mukammal holatga keladi, u hatto go'zallikda afsonaviy tasvirlarga yaqin darajaga yetadi.

Baxshi Shoberdi Boltayev variant:

Avazni Janjalkal bilan uchrashuvi:

Janjalkal poda boqib, har podaning haqiga osh-halol olib yurar edi. Bir kuni shunday enasining uyiga qarasa, enasi bilan bir chol suhbat qurib o'tiribdi. Bu kim ekan, deb tayoqni orqasidan asta-asta sudrab uyiga kirib keldi. Shunda Xo'shkeldi chol obdastani qo'liga olib, peshin namoziga tahorat qildi. O'n rakat peshin namozidan forig' bo'ldi. Janjalkalning kelayotganini ko'rib, otasidan o'rgangan jodusi esiga kelib, ko'k parni qo'liga olib, boshidan uch marta aylantirib siladi. Ana shunda Janjalkal enasining oldiga borib, kim uyga keldi, deb so'radi. Shunda enasi joyidan turib: "Suyunchi ber, o'g'lim, Chambilning belidan, taka-yovmut xilidan Avazxon degan akang keldi", dedi. [4.217–218-b.]

Kampir butun Chambil elidagi taniganlarini birma-bir so'rab bo'lgach, o'g'li Janjalkalga tog'ang Avaz mehmon bo'lib kelibdi, mehmonni kutish odat ekanligi, mehmonning qadriga yetib, obi yovg'on qilib mehmon qilishni aytadi. Mehmonnavozlikdan so'ng Avazxon Janjalkaldan mamlakatda qanday voqealar kechayotganini so'raydi. Bu variantda ham Janjalkal xushxabarlar borligini, podsho qizi Guloyim uch shart belgilaganini, barcha shartlarni bajarigan kimsaga u turmushga chiqishi mumkinligini yetkazadi. Avazxon shu shartlarni bajarishga taraddudlanadi. Ertasi kun boshlangach, Avazxon va Janjalkal birinchi shart o'tadigan yerga borishadi. Avazxon birinchi shartga Janjalkal chiqishini so'raydi, ammo u rad etadi. [4.220–221-b.]

Ikkinchi shartni Avazxon G'irotdan amalga oshiradi va g'olib bo'ladi. Avazxon uchinchi shartni bajarishni Janjalkalga aytganida u yana rad etadi. "– Tog'a, mard Xudodan ko'rsin, nomard bandadan ko'rsin, bu shart ham o'zingga buyursin", – deb javob qiladi. [4.223-b.]

Avazxon G'irotdan oxirgi shartni ham bajarib, maqsadiga erishadi. Bu yerda Janjalkalning harakati nafaoldek ko'rinadi. Ammo u Avazxonga taqdir qilingan shartlarni bajarishga undovchi "xabarchi" va "undovchi" sifatida ko'rsatiladi.

Ushbu variantda Janjalkal halol mehnat bilan podalarni boqib, har birining haqqini adolatli tarzda undirib yuruvchi shaxs sifatida tasvirlanadi. Bir kuni u onasining uyiga kelganida, u yerda onasi va bir chol suhbatlashib o'tirganiga guvoh bo'ladi. Shubha bilan kirgan Janjalkal vaziyatni kuzatadi. Chol tahorat olib, peshin namozini ado etgach, ko'k par yordamida sehrli amaliyot bajaradi.

Shu orada Janjalkalga Avazxonning kelgani haqida xabar beriladi. Onasi mehmonning Chambil elidan kelgan Avazxon ekanini bildirib, uni izzat-ikrom bilan kutib olish lozimligini ta'kidlaydi. Mehmondorchilik an'analariga muvofiq, Avazxon hurmat bilan qabul qilinadi.

Suhbat davomida Avazxon mamlakatdagi vaziyat bilan qiziqadi. Janjalkal podsho qizi Guloyim tomonidan qo'yilgan uch shart mavjudligi va ularni bajarigan shaxs unga uylanishi mumkinligini ma'lum qiladi. Shundan so'ng Avazxon shartlarni bajarishga qaror qiladi.

Birinchi shartni bajarishda Avazxon Janjalkaldan yordam so'raydi, biroq u rad javobini beradi. Ikkinchi shart Avazxon tomonidan G'irotdan ko'magida muvaffaqiyatli ado etiladi. Uchinchi shartda ham Janjalkal bevosita ishtirok etishni istamay, mas'uliyatni Avazxonga yuklaydi va jarayonni taqdir bilan bog'lab talqin qiladi.

Yakuniy bosqichda Avazxon G'irotdan yordamida uchinchi shartni ham muvaffaqiyatli bajarib, maqsadiga erishadi. Natijada Janjalkal faol qahramon emas, balki voqealar rivojini yo'naltiruvchi xabarchi va vositachi obraz sifatida namoyon bo'ladi.

Baxshi Abdunzar Poyonov varianti: Bu doston variantida baxshi Janjalkal bilan bog'liq bir voqealikka ega epizodni kuylamagan. Faqat Misr mamlakatining shohi Shohdorchoh xotirasi orqali quyidagicha eslab o'tiladi:

"Bundan yigirma yil avval Chambildan Hasan Ko'lbar degani bir devni eshak qilib minib o'tib ketgan edi. O'shanda adashib kelib, bir qizga uylanib, undan bir o'g'li qolgan edi. O'g'lining ismini

Janjalkal der edi. O'g'li bilan kampiri shu mamlakatda qolgandi. Shu sababdan Hasan Ko'lbarning Go'ro'g'lining polvoni ekanligini bilishar edi". [4.310-b.]

Syujet parchasida baxshi Abdunzar Poyonov variantidagi dostonning epizodik xotira shaklidagi qismini ifodalaydi. Unda Janjalkal bilan bog'liq bevosita voqea tasvirlanmaydi, balki u Shohdorshohning xotirasi orqali retrospektiv tarzda esga olinadi. Mazmuniga ko'ra, bundan yigirma yil avval Chambil hududidan Hasan Ko'lbarcha ismli qahramon devni yengib, uni eshak kabi minib o'tganligi haqida rivoyat qilinadi. Keyingi voqealarda u tasodifan Misr mamlakatiga kelib qolib, bir qizga uylanadi va undan Janjalkal ismli farzand tug'iladi. Hasan Ko'lbarning oilasi, ya'ni ayoli va o'g'li ushbu mamlakatda qolib ketadi. Shu holat orqali Janjalkalning kelib chiqishi va uning Go'ro'g'li pahlavonlar sulolasiga mansubligi haqidagi xalqona tasavvur asoslanadi. Ushbu epizod doston matnida genealogik bog'lanish va qahramonlar nasl-nasabini izohlovchi informativ qatlam vazifasini bajaradi.

Xulosa. "Malla savdogar" dostoni va uning turli variantlarida Janjalkal personajining badiiy talqini o'zbek xalq epik tafakkurining murakkab va ko'p qatlamli tabiatini yaqqol namoyon etadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mazkur obraz birgina komik yoki ikkinchi darajali yordamchi figura sifatida emas, balki syujet dinamikasini harakatga keltiruvchi, voqealar rivojiga faol ta'sir ko'rsatuvchi ko'p funksiyali epik timsol sifatida shakllangan.

Janjalkal obrazida xalqona kulgi, soddalik, ba'zan makkorlik va beqaror xulq-atvor elementlari uyg'unlashgan bo'lsa-da, u orqali ijtimoiy adolat, mehnatkashlik, halollik va insoniylikka doir xalqona qarashlar ham badiiy ifodasini topadi. Uning turli variantlarda turlicha talqin qilinishi folklor matnlarining variantlilik, improvizatsion erkinlik va baxshilar ijodiy individualligiga bog'liq ekanini tasdiqlaydi. Shuningdek, Janjalkal obrazi epik an'analarda komik va jiddiy qatlamlarning sintezi, xalq dunyoqarashida esa kulgi orqali tarbiya berish estetik tamoyilining mavjudligini ko'rsatadi.

U ko'pincha voqealarning bevosita markazida emas, balki ularni harakatga keltiruvchi vositachi, xabarchi yoki kontrast qahramon sifatida ishtirok etadi. Umuman olganda, "Malla savdogar" dostoni variantlarida Janjalkal personaji o'zbek xalq epik an'anasining badiiy tafakkuri, obraz yaratish tamoyillari va ijtimoiy-estetik qarashlarini o'rganishda muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Asqarova J., Rasulova Z. "Sehrli ertaklarda kal obrazi va soch magiyasi bilan bog'liq qarashlar" maqolasi // Til va adabiyot ilmiy jurnali. – 2023. – 11-son. – B. 41–42. – URL: www.tilvaadabiyot.uz
2. Eshnazarova N.X. "O'zbek va turk ertaklarida kal obrazining qiyosiy tahlili" maqolasi // "Turkiy xalqlar folklorlarining qiyosiy o'rganilishi masalalari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari. – B. 327–329, 335.
3. "Malla savdogar" dostoni ("Nurali" dostoni turkumi) / baxshi Jo'ra Eshmirza o'g'li varianti. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989. – B. 351–353.
4. "Malla savdogar" dostoni / baxshilar Chorshanbi Rahmatullayev, Shoberdi Boltayev, Abdunazar Poyonov variantlari. – Toshkent: Akadernashr, 2019. – B. 84–91, 94–95, 99–100, 217–218, 220–221, 223, 310.